

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga birlashtirish to'g'risida

Qo'shtepa tuman xalq ta'limi bo'limining 2019 yil 25 iyuldagi "Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga birlashtirish to'g'risida"gi 10/421-sonli murojaatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi va Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonunining 6,25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN

1. Tuman xalq ta'limi bo'limining 2019 yil 25 iyuldagi "Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga birlashtirish to'g'risida"gi 10/421-sonli murojaati maqullansin.

2. Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi har bir ta'lim muassasalariga hudud va mikrohududlarga birlashtirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. "Istiqbol yo'li" gazetasi tahririyati (U.Xudoyberganova), Qo'shtepa tuman hokimligining Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytini yuritish, ma'lumotlarni va huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan va qabul qilingan qarorlarni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga doimiy joylashtirib borish (O.Esonaliyev) mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishi ta'minlasin.

4. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosari A.Yusupov hamda tuman xalq ta'limi bo'limi O.Dexqonovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi:

I.Novikov